



QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar-avgust






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiyligi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- sentabr holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2859** tani tashkil etib, 2022- yil 1-sentabrga nisbatan 10 taga ko'paygan (o'sish sur'ati 100,3%). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni 86 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni 2773 tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **6144,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **104,5 %** ga yetdi.

Shumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **231,7** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **138,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **5913,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **103,5 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **798,2** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,7 %**) tashkil etdi.

**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK
KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'SISH SUR'ATLARI**




Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik , mlrd. So'm | 2022- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--|--------------------|---|--------------------------------------|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 6 144,8 | 104,5 | 231,7 | 138,7 | 5 913,1 | 103,5 |
| Nukus shahri | 1 157,5 | 100,1 | 54,0 | 106,6 | 1 103,5 | 99,8 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 520,5 | 104,0 | 10,2 | 81,4 | 510,3 | 104,6 |
| Beruniy | 330,8 | 101,6 | 20,0 | 88,7 | 310,8 | 102,5 |
| Bo'zatov | 76,4 | 103,9 | 0,1 | 62,6 | 76,2 | 104,1 |
| Qorao'zak | 280,8 | 103,7 | 0,8 | 91,6 | 280,0 | 103,7 |
| Kegeyli | 256,4 | 107,0 | 0,9 | 92,0 | 255,4 | 107,0 |
| Qo'ng'iroq | 484,1 | 104,0 | 11,8 | 90,5 | 472,3 | 104,4 |
| Qonliko'l | 235,2 | 104,0 | 0,3 | 59,8 | 234,9 | 104,1 |
| Mo'ynoq | 66,0 | 104,3 | 0,3 | 65,8 | 65,8 | 104,5 |
| Nukus | 176,9 | 103,8 | 0,6 | 65,1 | 176,3 | 104,0 |
| Taxiatosh | 252,1 | 138,1 | 81,5 | 583,6 | 170,6 | 101,2 |
| Taxtako'pir | 203,3 | 104,3 | 0,5 | 67,1 | 202,8 | 104,5 |
| To'rtko'l | 704,5 | 105,3 | 25,0 | 115,6 | 679,4 | 104,9 |
| Xo'jayli | 573,7 | 104,3 | 9,5 | 89,0 | 564,3 | 104,6 |
| Chimboy | 311,9 | 104,1 | 6,8 | 91,0 | 305,1 | 104,4 |
| Shumanay | 138,3 | 104,2 | 0,4 | 63,9 | 137,8 | 104,4 |
| Ellikqal'a | 376,6 | 104,3 | 9,2 | 97,1 | 367,4 | 104,4 |

2023- yilning yanvar-avgust oylarida 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan respublikaning Taxiatosh (138,1 %), Kegeyli (107,0 %), To'rtko'l (105,3%) va Mo'ynoq (104,3 %) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

SHAHAR VA TUMANLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari,
foizda




2023- yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati 104,5% ni tashkil qildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **5913,1** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022 yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,5 %** ga o'sdi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,2%** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **138,7%** ga o'sdi va **231,7** mlrd. so'mni tshkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **3,8 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qorao'zak (99,7 %), Bo'zatov (99,8 %) va Qonliko'l (99,9 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo Tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,8 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Taxiatosh (32,3%), Beruniy (6,0%), Nukus shahri (4,7%) va To'rtko'l (3,5%) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

| | Hajmi, ming. so'm | O'sish sur'ati, foizda |
|--------------------------------------|----------------------|---------------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 3 101,1 | 103,1 |
| Nukus shahri | 3 450,1 | 98,7 |
| tumanlar: | | |
| Amudaryo | 2 486,7 | 102,2 |
| Beruniy | 1 637,6 | 99,7 |
| Bo'zatov | 3 486,6 | 103,5 |
| Qorao'zak | 5 180,6 | 102,7 |
| Kegeyli | 3 450,3 | 106,2 |
| Qo'ng'irot | 3 588,5 | 102,7 |
| Qonliko'l | 4 420,4 | 102,8 |
| Mo'ynoq | 1 970,9 | 103,4 |
| Nukus | 3 331,1 | 101,9 |
| Taxiatosh | 3 304,4 | 137,0 |
| Taxtako'pir | 5 227,0 | 109,2 |
| To'rtko'l | 3 122,6 | 103,5 |
| Xo'jayli | 4 496,2 | 103,0 |
| Chimboy | 2 710,0 | 103,3 |
| Shumanay | 2 396,3 | 103,1 |
| Ellikqal'a | 2 236,1 | 102,3 |


2023- yilning yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **3101,1** ming. so'mni (2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,1%**) tashkil etdi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Taxtako'pir (**5227,0** ming. so'm), Qorao'zak (**5180,6** ming. so'm) va Xo'jayli (**4496,2** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.


UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **798,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **107,7%** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **394,3** mlrd. so'mni (102,0%), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **403,9** mlrd so'mni tashkil etdi (**114,0 %**).

Shahar va tumanlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

| | Jami, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda | Dehqon bozorlari, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda | Chorva bozorlari, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--|---------------------------------|---|---|---|---|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 798,2 | 107,7 | 394,3 | 102,0 | 403,9 | 114,0 |
| Nukus shahri | 105,8 | 113,5 | 58,6 | 120,2 | 47,3 | 106,0 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 62,0 | 106,4 | 35,3 | 116,1 | 26,7 | 95,9 |
| Beruniy | 56,0 | 107,4 | 11,3 | 41,4 | 44,7 | 179,8 |
| Bo'zatov | 17,5 | 104,3 | 14,1 | 160,5 | 3,4 | 43,1 |
| Qorao'zak | 38,7 | 105,6 | 18,7 | 97,8 | 20,0 | 114,3 |
| Kegeyli | 68,9 | 116,0 | 54,9 | 176,6 | 14,0 | 49,5 |
| Qo'ng'iroq | 47,6 | 104,1 | 37,9 | 158,7 | 9,7 | 44,4 |
| Qonliko'l | 32,6 | 105,0 | 8,6 | 52,9 | 24,0 | 161,4 |
| Mo'ynoq | 9,5 | 102,0 | 9,5 | 102,0 | 0,0 | 0,0 |
| Nukus | 38,5 | 107,1 | 11,3 | 60,4 | 27,2 | 158,2 |
| Taxiatosh | 20,3 | 100,9 | 14,2 | 136,0 | 6,1 | 63,0 |
| Taxtako'pir | 29,7 | 107,0 | 14,2 | 98,0 | 15,5 | 116,3 |
| To'rtko'l | 100,3 | 106,5 | 36,8 | 74,8 | 63,5 | 141,0 |
| Xo'jayli | 58,5 | 105,2 | 35,3 | 121,4 | 23,2 | 87,2 |
| Chimboy | 57,0 | 105,3 | 24,9 | 87,9 | 32,2 | 124,4 |
| Shumanay | 18,8 | 108,1 | 10,2 | 112,1 | 8,6 | 103,6 |
| Ellikqal'a | 36,5 | 109,7 | 16,4 | 94,5 | 20,1 | 126,8 |

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdag'i tadbirkorlar (YATT)ni qo'shagan holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **394,3** mlrd. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**198,2** mlrd.so‘m) to‘g‘ri keldi.

| Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari | Mlrd. so‘m |
|---|--|
|  | Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 198,2 |
|  | Non va non mahsulotlari 34,6 |
|  | Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 38,3 |
|  | Tovuq go‘shti 17,6 |
|  | Quritilgan qishloq xojaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar) 16,7 |
|  | Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 22,8 |
|  | Tuxum 21,3 |
|  | Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 14,9 |
|  | Ziravorlar 11,4 |
|  | Tuzlamalar 11,0 |
|  | Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 7,5 |
| Nooziq-ovqat tovarlari | - |

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so'm

2023- yilning yanvar-avgust oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **403,9** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **348,5** mlrd.so'm, qo'y va echkilar – **45,7** mlrd. so'mni, otlar – **6,3** mlrd. so'mni, parrandalar – **3,4** mlrd. so'mni tashkil qildi.

| Chorva mollari (parrandalar) | Mlrd. so'm |
|--|---------------|
|  2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar | 210,7 |
|  1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar | 61,1 |
|  1 yoshgacah bo'lgan yosh mollar | 76,7 |
|  Qo'ylar | 28,7 |
|  Otlar | 6,3 |
|  Echkilar | 17,0 |
|  Kurka, o'rdak, g'oz | 2,6 |
|  Tovuqlar | 0,8 |
|  Quyonlar | - |
|  Qushlar | - |

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023- yil 1- sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1053** tani tashkil etib, 2022- yil 1 – sentabr holatiga nisbatan **35** taga ko‘paygan va o‘sish sur’ati **103,4 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko‘rsatayotgan yirik korxonalar soni 2 tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1051** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar-avgust oylarida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **2,9 %** ni tashkil etib, **175,9** mlrd. so‘mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **104,9 %** ga o’sdi.. Bunda savdo aylanmasining **100,0%** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to‘g’ri keldi.

| | Jami mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so‘m | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--|-----------------------|---|--------------------------------------|---|--|---|
| Qoraqalpog‘iston Respublikasi | 175,9 | 104,9 | 0,1 | 17,6 | 175,8 | 105,2 |
| Nukus shahri | 82,5 | 92,0 | - | | 82,5 | 92,4 |
| tumanlar: | - | | | | - | |
| Amudaryo | 9,7 | 109,6 | - | | 9,7 | 109,6 |
| Beruniy | 7,3 | 111,8 | - | | 7,3 | 111,8 |
| Bo‘zatov | 0,8 | 140,6 | - | | 0,8 | 140,6 |
| Qorao‘zak | 3,6 | 125,7 | - | | 3,6 | 125,7 |
| Kegeyli | 2,2 | 109,9 | - | | 2,2 | 109,9 |
| Qo‘ng‘irot | 31,2 | 136,5 | 0,1 | | 31,1 | 136,2 |
| Qonliko‘l | 1,9 | 103,1 | - | | 1,9 | 103,1 |
| Mo‘ynoq | 0,7 | 164,3 | - | | 0,7 | 164,3 |
| Nukus | 1,2 | 181,5 | - | | 1,2 | 181,5 |
| Taxiatosh | 3,6 | 125,0 | - | | 3,6 | 125,0 |
| Taxtako‘pir | 1,2 | 126,9 | - | | 1,2 | 126,9 |
| To‘rtko‘l | 10,5 | 108,0 | - | | 10,5 | 108,0 |
| Xo‘jayli | 10,3 | 108,6 | - | | 10,3 | 108,6 |
| Chimboy | 4,0 | 121,0 | - | | 4,0 | 121,0 |
| Shumanay | 0,9 | 110,6 | - | | 0,9 | 110,6 |
| Ellikqal‘a | 4,1 | 102,0 | - | | 4,1 | 102,0 |

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- sentabr holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo‘lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta’mirlash va texnik xizmat ko’rsatish*) **1408,5** mlrd. so‘mni tashkil etdi va o’tkan yilning mos davriga nisbatan **161,3%** ga o’sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **544,7** mlrd. so‘m (o’sish sur’ati – **135,3%**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **863,8** mlrd. so‘mni (o’sish sur’ati – **172,2 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoq qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o‘ish sur’ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




| | Hajm, mlrd. so'm | Ulushi, foizda |
|--------------------------------------|---------------------|-------------------|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 1 408,5 | 100,0 |
| Nukus shahri | 900,6 | 63,9 |
| tumanlar: | | - |
| Amudaryo | 15,1 | 1,1 |
| Beruniy | 387,7 | 27,5 |
| Bo'zatov | 0,6 | 0,0 |
| Qorao'zak | 0,9 | 0,1 |
| Kegeyli | 69,8 | 5,0 |
| Qo'ng'irot | 1,3 | 0,1 |
| Qonliko'l | 0,7 | 0,0 |
| Mo'ynoq | 0,9 | 0,1 |
| Nukus | - | - |
| Taxiatosh | 2,9 | 0,2 |
| Taxtako'pir | 0,4 | 0,0 |
| To'rtko'l | 11,3 | 0,8 |
| Xo'jayli | 2,6 | 0,2 |
| Chimboy | 6,7 | 0,5 |
| Shumanay | 0,0 | 0,0 |
| Ellikqal'a | 6,9 | 0,5 |

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Nukus shahri (**900,6** mlrd. so'm), Beruniy (**387,7** mlrd. so'm) va Kegeyli (**69,8** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.


Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingen va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o'z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o'zgartirmagan holda jo'natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to'lanadigan yoki to'lanmaganligidan qat'iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'mda



47,3

Qoraqalpog'iston Respublikasi bo'yicha 2023- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **2214,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,8%** ni tashkil qildi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **1954,4** mlrd. so'mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **107,1%**ga to'g'ri keldi. Respublikada ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **88,2%** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Nukus shahrida (115,5%) va Taxiatsosh tumanida (113,2%) kuzatildi.

2023- yil 1- sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalari soni **1013** tani tashkil etib, 2022- yil 1- sentabr holatiga nisbatan **4** taga kamaygan, o'sish sur'ati **99,6%** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1007** tani tashkil qildi.

| | Jami mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda | Yirik korxonalar mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda | Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm | 2022- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda |
|--|--------------------|---|--------------------------------------|---|--|---|
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 2 214,7 | 107,8 | 260,4 | 113,3 | 1 954,4 | 107,1 |
| Nukus shahri | 975,8 | 106,8 | 8,2 | 115,5 | 967,6 | 106,7 |
| tumanlar: | | | | | | |
| Amudaryo | 47,3 | 108,3 | - | | 47,3 | 108,3 |
| Beruniy | 122,9 | 109,4 | - | | 122,9 | 109,4 |
| Bo'zatov | 4,6 | 104,6 | - | | 4,6 | 104,6 |
| Qorao'zak | 33,2 | 107,5 | - | | 33,2 | 107,5 |
| Kegeyli | 14,5 | 126,4 | - | | 14,5 | 126,4 |
| Qo'ng'irot | 87,9 | 107,9 | - | | 87,9 | 107,9 |
| Qonliko'l | 46,9 | 105,4 | - | | 46,9 | 105,4 |
| Mo'ynoq | 71,4 | 106,1 | - | | 71,4 | 106,1 |
| Nukus | 36,0 | 105,2 | - | | 36,0 | 105,2 |
| Taxiatsosh | 310,9 | 111,6 | 252,2 | 113,2 | 58,7 | 105,3 |
| Taxtako'pir | 22,5 | 106,0 | - | | 22,5 | 106,0 |
| To'rtko'l | 243,9 | 107,9 | - | | 243,9 | 107,9 |
| Xo'jayli | 64,7 | 107,5 | - | | 64,7 | 107,5 |
| Chimboy | 47,3 | 107,3 | - | | 47,3 | 107,3 |
| Shumanay | 2,1 | 105,4 | - | | 2,1 | 105,5 |
| Ellikqal'a | 82,7 | 106,1 | - | | 82,7 | 106,1 |



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Tel.: 61 222-67-45